



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

2022 YIL 20 DEKABR

YANGI YIL TABRIGI



Aziz ustoz va talaba yoshlar!

**Sizlarni qutlug' qadamlar bilan kirib kelayotgan
Yangi – 2023 yil bilan chin dildan tabriklayman.**

Tarix sahifalaridan joy olayotgan 2022 yilda yurtimizning barcha sohalarida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu esa Prezidentimiz tashabbusi bilan olib borilayotgan odilona siyosat natijasida deb aytish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigida hozirgi vaqtda "Inson – jamiyat – davlat" degan tamoyilni Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga, kundalik hayotimizga chuqur singdirishimiz zarurligi, inson, uning hayoti, huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, inson qadrini ulug'lash bu boradagi islohotlarimiz markaziga olib chiqilayotganini alohida ta'kidlab o'tdi.

O'tgan 2022 yil Akademiya hayotida muhim voqealarga boy bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi biz kutgan natijalarni berdi. Dunyoning ko'zga ko'ringan oliy ta'lim muassasalari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorliklar bizning qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan sanaladi. Ilmiy tadqiqotlar borasida ham ahamiyatga molik, ijobiy yutuqlarga erishildi. Quvonarlisi yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlar va ixtirochilik ishlari respublikamiz jamoatchiligi e'tiborini qozondi.

Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va sport sohasida qilingan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar ham o'ziga xos salmoqqa ega.

Akademiya hamda tahsil oluvchi talaba-yoshlarning yutuqlarini ko'rib, olib borilayotgan tizimli ishlarining samarasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Talaba yoshlar orasida Prezident, Ibn Sino nomdor stipendiantlarning ko'plab chiqqani quvonarli hol. Shu bilan birga, Tashkent tibbiyot akademiyasida faoliyat ko'rsatgan 28 nafar mashhur akademik va professor nomidagi stipendiya ta'xis etilib, 200 dan ortiq talaba sazovor bo'lishdi. Bu kabi yoshlarimizning safi yanada kengayishiga tilakdoshman.

Qutlug' qadamlar bilan kirib kelayotgan yangi 2023 yilda ham akademiya jamoasi katta-katta rejalarni amalga oshirish, bir qator xayrli tadbirlarni o'tkazishni mo'ljalamoqda.

Qadrlil ustozlar, muhtaram professor-o'qituvchilar, aziz talabalar!

Sizlarni yana bir bor kirib kelayotgan Yangi yilingiz bilan chin qalbimdan muborakbod etaman. Ilmiy, ijodiy, o'qishdagi faoliyatingiz va intilishlaringizda muvaffaqiyatlar, oilangizga totuvlik, o'zingizga mustahkam sog'liq, xonadoningizga fayzu baraka tilayman!

Yurtimizda yashayotgan har bir oila, har bir inson murosadiga yetsin! Kirib kelayotgan Yangi yil ona diyorimizga fayzu baraka, yangi yutuq va zafarlar olib kelsin!

A.SHADMANOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

Hikmat



*Bo'lsin qordek toza va musaffo,
Qadam qo'ygan Yangi yilingiz!*



Hikmat

UMR KITOBIDAN BIR SAHIFA O‘TDI...

Har gal yilning oxirgi fasli intihosi yaqinlashib, umrning yangi sahifasi ochilishiga yaqin qolgan kunlarda inson o‘z-o‘zini, atrofdagilarga qiyoslab taftish o‘tkazadi.

Erishilgan g‘alabalar, qo‘lga kiritilgan yutuqlar, egallangan marralar, qozonilgan zafarlar shodmon va xushnud qilsa, armonga aylanib ketgan orzular, yo‘qotishlar, o‘zimiz va o‘zgalarning aybi bilan yuzaga kelgan qusurlar, kamchiliklar, nuqsonlar ba‘zan xijolatga, ba‘zan qayg‘uga sabab bo‘ladi.

Ustoz Abdulla Oripov bitganlaridek:
*Umrin kitobidan bir sahifa o‘tdi,
Bir beti malomat, bir varaq shuhrat.*

Kechgan 2022 yil dunyo sahnida, O‘zbekiston miqosida sog‘liqni saqlash tizimida voqea va hodisalarga, alomat va ibratlarga boy bo‘ldi. Ular orasida insoniyatning taraqqiyoti, turmushi sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi islohotlar, yangiliklar ham va albatta aksariyat yillarda kuzatilganidek Bani bashar turmush sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar ham yetarli bo‘ldi. Jahon miqosida olib qaralganida Rossiya – Ukraina urushi, Suriyadagi qonli buhronlar, koronavirusning yangi shtammi keng tarqalishi, qora qit‘aning ayrim hududlarida vabo epidemiyasining tarqalishi, Yevropadagi energetik va oziq-ovqat taqchiliklar, Turkiyadagi zilziladan mingga yaqin odam vafot etganligini ana shunday salbiy alomatlardan bo‘lsa, yil fasllari me‘yorida kechib bahor yomg‘irlarining ko‘pligi, saraton issiqlarining obi-tobida bo‘lganligi, tiyramohning kechikibroq kelishi yurtimizdagi meva-sabzavotlar, poliz mahsulotlari, paxta yetishtirilishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi, rizqu ro‘zimiz mo‘l bo‘lib, dasturxonlarimiz liq to‘ldi. Respublikamiz rahbariyatining oqilona va odilona siyosati, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi bilan fuqarolarimiz turmushi

darajasini yaxshilanishiga qaratilgan ko‘plab islohotlar o‘tkazildi, yangi, har tomonlama o‘ng‘ay va hamma-bop qaror va qonunlar qabul qilindi. Mustaqillik bayramida, ustozlar kunida, shifokorlar bayramida hamda respublikamiz Konsititutsiyasining 30 yilligi bayramida minglab munosib yurtdoshlarimiz qatorida Akademiya ham professor-o‘qituvchilari, xodimlari davlat va akademiya mukofotlariga sazovor bo‘ldilar. Shu bilan birga Akademiyaning iqtisodiy mustaqillikka erishishi professor-o‘qituvchilarning maoshlari sezilarli darajada oshishiga, meditsinaning bir qator yo‘nalishlarining kengayishiga olib keldi. Shu bilan birga mashg‘ulot soatlarining ertaroq boshlanishi tolibi ilmlar va professor-o‘qituvchilar vaqtlarining oqilona hamda samarali taqsimlanishiga, mustaqil ishlash uchun ko‘proq vaqtga ega bo‘lishlariga olib keldi. Oltinchi bosqich talabalarining shifokor yordamchilari sifatida bevosita amaliyotga jalb etilishi ham ularni tezroq amaliy shifokorlik bilan integratsiya bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda joriy yil Vatanimiz, sog‘liqni saqlash tizimi va Akademiya uchun muvaffaqiyatlarga, islohotlarga boy yil bo‘ldi. Sanoqli kunlarda 2023 yilni kutib olish oldida turib ro‘yi zaminning barcha aholisi, Vatanimiz fuqarolarini, muhtaram Akademiya jamoasini samimiy qutlaymiz va barcha orzu-umidlar amalga oshib, yorqin kelajakning mayog‘ini qo‘lga olishlarini tilaymiz. Umrimizning yangi sahifasi yorqin lahzalarga, yutuqlarga boy bo‘lsin.


**Alijon FAQIROV,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi va Jurnalistlar ijodiy
uyushmalari a‘zosi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Sog‘liqni saqlash a‘lochisi**



AKADEMIYANING XALQARO HAMKORLIGI KENGAYMOQDA

Toshkent tibbiyot akademiyasiga Hindistonning Academy of higher education and research akademiyasining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor va dekani tashrif buyurdi.

Suhbatda JSS Akademiyasi va TTA o‘rtasida tibbiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar va ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqish mavzusi ko‘tarildi. Bundan tashqari, JSS Akademiyasi professor-xodimlarini Toshkent tibbiyot akademiyasi xodimlari bilan birgalikda ilmiy ishlarni olib borishi, hamkorlikda maqolalar nashr etishiga shuningdek, taqirizchi sifatida ishtirok etishga kelishildi. Shu bilan birga, talabalar mobillik almashinuvi, o‘qituvchilarning malaka oshirishi hamda TTA va JSS Akademiyasi birgalikda xalqaro olimpiada, konferensiyalar va seminarlar o‘tkazishga kelishib olindi.



ALLERGOLOGLAR ANJUMANI

Kuni kecha poytaxtimizda "Molekulyar allergologiyaning rivojlanish davri" mavzusida allergolog-klinik immunologlarning ilmiy-amaliy forumi bo'lib o'tdi.

XXI asrning birinchi yarmida butun dunyo va respublikada allergik kasalliklar tarqalishining kuchayishi munosabati bilan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ixtisoslashtirilgan, shoshilinch va shoshilinch tibbiy yordam, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash sohasidagi faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Allergiya va immunopatologiyani erta aniqlash, allergiya va immunitet tanqisligi holatlarida immun javob buzilishining shakllanish mexanizmlari va bu jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish muammolarini hal qilish nafaqat allergik, balki immunitetga bog'liq bo'lgan boshqa kasalliklarni ham kamaytiradi. Allergologiya-klinik immunologiya sohasida vrachlarning yetarli bilimiga ega emasligi, allergologiya-klinik immunologiya sohasida kadrlar yetarlicha bilimiga ega emasligi aholining birlamchi tibbiy yordam shifokorlariga murojaat qilishiga, ba'zan ko'rikka kechikishiga asosiy sabab bo'lib, og'ir kasalliklar rivojlanishiga allergopatologiyaning asoratlari, shu paytgacha biz bolalik va yoshlik davrida allergopatologiyaning ko'proq uchrashi haqida fikr yuritildi.

Afsuski, songgi besh yil buning aksini isbotladi va biz yetuk, keksa odamlarda birinchi tashxis qo'yilgan allergik kasalliklarni ko'rmoqdamiz. Og'riqli nuqtalarimizdan yana COVID-19 pandemiyasi davrida yallig'lanishga qarshi, antibakterial, immunotrop dorilarning keng qo'llanilishi tufayli dori vositalariga yuqori sezuvchanlikning o'sishi bo'lmoqda.

Prezidentimizning 2018 yil 11 maydagi "Allergik kasalliklarni profilaktika qilish, ularga tashxis qo'yish va davolashni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 oktabrdagi "Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Xalqaro molekulyar allergologiya markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari dasturulamal bo'lyapti.

Respublika ilmiy ixtisoslashtirilgan allergologiya markazining terapevtik va diagnostik faoliyati tubdan o'zgarib bormoqda, laboratoriyada maxsus in vivo va in vitro tashxisot tahlillari o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 maydagi qaroriga asosan markazda ilmiy bo'lim tashkil etildi.

Tez orada markaz PP No-3715 bo'yicha qurilgan respublika allergologiya markazining yangi zamonaviy binosiga ko'chib o'tishi kutilmoqda. Shuningdek, markaz tuzilmasi qayta tasdiqlanmoqda, o'rinlar soni 45 ta statsionar o'rindan 160 taga ko'paytirilmoqda, shtat birliklari 2 barobar ko'payadi, umuman olganda, yangi bino respublika allergologiya xizmatiga innovatsion ruh kiritadi.

O'tkazilgan anjuman nafaqat respublika mutaxassislari, balki Avstriya, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston kabi mamlakatlarning yetakchi olim va mutaxassislarida ham katta qiziqish uyg'otdi.

Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Avstriya, Hindiston, Gruziya kabi allergologiya sohasida yaqin va uzoq xorijning nufuzli xalqaro olimlari, klinikalari bilan ilmiy-amaliy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Rossiyadan professor E.Fedenko, E.Jukalina, O.Kurbachyova, Gruziyadan professor M.Gotua, Argentinadan professor Jorge F.Maspero, qo'shni Qozog'istondan professor R.Rozenson, M.Moreno, O.Usenova va respublikamizning




taniqli olim professorlari qiziqarli ma'ruzalar bilan qatnashdilar.

Kelgusidagi muammolarni hal qilish uchun allergik kasalliklarning aniqlanishini yaxshilash va ishonchli statistik ma'lumotlarni hisobga olishni ta'minlash, birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish va allergik kasalliklarning oldini olish, bronxial astma va allergik kasalliklarni erta tashxislash, ularga qarshi kurashish milliy dasturini ishlab chiqish zarur.

N.AYDAROVA,
Respublika ilmiy ixtisoslashgan allergologiya markazi
direktori o'rinbosari, tibbiyot fanlari nomzodi,
Q.NIZOMOV,

TTA allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi
kafedrasida katta o'qituvchisi, "Tibbiyotnoma" gazetasi maxsus
muxbiri





XALQARO ALOQALAR MUSTAHKAMLANMOQDA

Xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o'rtasida ilmiy-fan sohasida o'rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o'zaro tajriba almashish maqsadida II Xalqaro olimpiada Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) va Koreya xalqaro sog'liqni saqlash jamg'armasi (KOFIH) bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Olimpiada davomida Koreya sog'liqni saqlash Xalqaro fondining O'zbekistondagi vakili Kim Heeun

ishtirok etdi. Kim Heeun nutq so'zlab, iqtidorli talabalarning amaliy va nazariy bilimlarini namoyon qilish uchun yaratilayotgan sharoitlarni qo'llab-quvvatlab, barcha tashkilotchilarga sihat-salomatlik tiladi.

GIZ loyihasi rahbari Korneliya Bekker o'z nutqida olimpiada ishtirokchilarga omad va muvaffaqiyatlar tilab, ilmiy-fan sohasida yutuqlarga erishishini, hamkorlikda yanada faoliyat olib borishini ta'kidlab o'tdi.

DAVRA SUHBATI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi munosabati bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ochiq muloqot "Yangi konstitutsion islohotlarda yoshlarning huquqlarini mustahkamlash" mavzusiga bag'ishlandi.

Tadbirda "Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati" va "Yoshlar huquqlari qonun himoyasida" mavzulariga to'xtalib o'tildi.

"Navo shifo" ansambilining iqtidorli talabalarining chiqishlari tadbirga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Huquqiy viktorina savollariga javob bergan talabalarga esdalik sovg'alari topshirildi.



DUNYO MAMLAKATLARIDA YANGI YIL BAYRAMI

Angliyada...

Angliyada yangi yil sovg'asiz nishonlanadi va oila davrasida nishonlanishi shart emas. Bu bayram tantanasining an'anaviy taomi yo'q. Odatga ko'ra ingliz uy bekaleri olmal pirog tayyorlashadi. Angliyada omadni uyga ko'mir parchasini yoki stakanda toza suv olib kelgan kishi keltiradi. Buyuk Britaniyada "Yangi yilni kiritish" marosimi keng tarqalgan. Angliyaliklar uchun Yangi yilning birinchi kuni yaqin o'tmish va sirlil kelajak o'rtasidagi chegaradir. Bu kun bilan ko'pgina belgilar, sir va taxminlar bog'langan.

Ispaniyada...

Yangi yil Ispaniyada - mamlakatning davlat bayramlaridan biri hisoblanadi. 1 yanvar har yili grigorian taqvim bo'yicha 1582 yildan boshlab nishonlanadi. Yangi yil bayrami ommaviy tarzda nishonlanadi. Bayram tunida xalq

mamlakatning katta va kichik shaharlaridagi bosh maydonlarda to'planishadi, ular qadimiy soat va qo'ng'iroqlarning bong urishini kutadilar. Ispan yangi yil marosimlaridan eng qiziqarlisi - 12 dona uzum iste'mol qilish marosimidir. Yangi yil kirib kelishi arafasida soatning har bir bong urishida odamlar bir donadan uzum iste'mol qilishgan va yangi yil tilaklarini o'z ko'ngillarida oylashgan.

AQSHda...

1 yanvar - Amerika Qo'shma Shtatlarida rasmiy ravishda Yangi yilni nishonlashadi, biroq 31 dekabrden xalq sayllari boshlanadi. Ko'pdan kutilgan bu bayramga esa Amerika aholisi noyabr oyining oxiridan tayyorgarlik qila boshlaydi. Yangi yil kirganini yarim tunda osmondagi hayratomuz mushakbozliklar, avtomobil sirenalari ovozi bilan bilish mumkin. Amerikaning ko'pchilik shaharlarida Yangi yil

arafasida bayram namoyishlari o'tkaziladi, futbol matchlari, turli manzarali tadbirlar bo'lib o'tadi. AQShda Yangi yilni kutib olishning eng asosiy qoidasi - xursandchilik. Amerikaliklar uchun Yangi yil - yangi hayotning boshlanishidir. Amerikaliklar bayramda o'z oldilariga turli muhim o'zgarishlarni qo'yadilar.

Germaniyada...

Yangi yil bayramini nemislar uyda nishonlamaydilar. Ular tanishlari, hamkasblari va do'stlari bilan uchrashib, yaxshi tilaklarni bir-biriga bildirishadi. Bu kuni hech kim o'zini yolg'iz his qilmaydi, chunki soat birinchi bong urishi bilan odamlar ko'chaga chiqishadi va Yangi yil munosabati bilan salyut boshlanadi. Eng katta bayram Berlinda bo'lib o'tadi, ko'chadagi yangi yil bayrami 2 km. masofaga yetadi, bir soat davomida tunggi osmondan rang-barang shou davom etadi.





YOSHLAR KAMOLOTI YO`LIDA

Uchtepa tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 107-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida Toshkent tibbiyot akademiyasi Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasini xodimlari va 107-DIU maktab direktori N.Salimova, MMIBDO' A.Israilova bilan birgalikda tadbirlar otkazib kelinmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablari hamkorligini yo'lga qo'yish orqali o'quvchi yoshlarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Umumta'lim maktablari faoliyatini takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini, ularning ilm-fan va kasb-hunarga qiziqishini oshirish, oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida Toshkent shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari oliy ta'lim muassasalariga birlashtirilgan. 107-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida Toshkent tibbiyot akademiyasi Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasini

tomonidan reja asosida bir nechta tadbir o'tkazildi.

Kafedra xodimlari, professor-o'qituvchilar va magistratura bosqich talabalari ishtirokida 9 va 10-sinif o'quvchilari bilan "Kim bo'lishni xohlayman? Nima uchun biz shifokorlik kasbini tanladik?" mavzularida suhbat tashkil etildi. Tadbirda Toshkent tibbiyot akademiyasining tuzilmalari, fakultetlari haqida TTA mamlakatning eng yaxshi tibbiyot OTMLari reytingida 1-o'ringidagi, 70 dan ortiq xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik qilib, talaba va pedagoglarning xorijda stajirovkalar o'tishi, 100 dan ortiq xorijiy mutaxassislar ta'lim jarayoniga jalb qilinganligi haqida so'zlab berildi.

Talabalar TTAga kirish uchun qanday bilimlar olganlari, o'z kuchlari va bilimlari bilan o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatlar bilan tamomlayotganligi hamda shifokorlik kasbini egallayotganligini faxr bilan so'zlab berishdi.

Yana bir tadbir ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Toshkent tibbiyot akademiyasi Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasini o'qituvchilari tomonidan 107-DIU maktabning yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida "So'g'lom ovqatlanish - hayot tarzining asosi" mavzusunda tadbir o'tkazildi.

Har bir inson sog'lom turmush tarziga amal qilishi muhimligi ta'kidlandi. Tadbirda sog'lom turmush tarzi nima, unga amal qilish me'yorlari qanday, yurtimizda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nimalardan iboratligi tushuntirib o'tildi. Tadbir yangi interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda olib borildi.

Bu kabi birgalikdagi tadbirlar yoshlar kamolotiga xizmat qiladi.

D.NAJMUTDINOVA,
kafedra mudiri, t.f.d, professor,
N.MAGZUMOVA,
t.f.d, professor



O'tganlarning oxirati obod bo'lsin**TIBBIYOTGA BAXSHIDA UMR**

Inson hayotiga baho berar ekan, uning qanchalik uzunligiga emas, balki qanchalik mazmunga ega ekanligiga e'tibor qaratadi. Shuning uchun inson dunyoga kelibdiki o'z aql-zakovati va mehnati bilan insoniyat tarixida o'ziga xos iz qoldirishga harakat qiladi. Ana shunday tibbiyot sohasiga munosib hissa qo'shgan uztozlardan Omonturdi Mirtazayevdir.

Butun umri, hayoti, faoliyatini tibbiyotga baxshida etib, O'zbekiston tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan Toshkent tibbiyot akademiyasi professori, tibbiyot fanlari doktori, Rossiya Federatsiyasi tibbiy-texnika fanlari akademigi Omonturdi Mirtazayev 74 yoshida vafot etdi.

Omonturdi Mirtazayev 1948 yili Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida tug'ilgan. 1971 yili Toshkent Davlat tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan tugatgan Omonturdi Mirtazayev 1971-1973 yillarda epidemiologiya kafedrasida stajyor-tadqiqotchi, 1973-1976 yillarda shu kafedraning aspiranti bo'lgan. 1976-1990 yillarda epidemiologiya kafedrasida assistent va katta o'qituvchi, 1991 yildan Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot instituti epidemiologiya kafedrasida dotsenti bo'lib ishlagan.

O'sha davrda yuqori u kafedradagi ko'p aspirantlar va yosh o'qituvchilar ichida mehnatsevarligi, tadqiqotlarning epidemiologik usullarini o'rganishga bo'lgan intilishi va ilmiy tadqiqotlarni izchillik bilan amalga oshira olishi bilan ajralib turar edi.

Marhum ustoz 1981 yil «Shahar va qishloqlarda salmonellyozlarning epidemiologik xususiyatlari» mavzusida 14.00.30. - Epidemiologiya mutaxassisligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1991 yili dotsent O.Mirtazayev Markaziy epidemiologiya ilmiy-tadqiqot institutiga (Moskva) maqsadli doktoranturaga o'qishga yuborilib, 1993 yili «O'rta Osiyo mintaqasida salmonellyozlar epidemik jarayonning zamonaviy xususiyatlari va ushbu kasallikning epidemiologik nazoratini takomillashtirish yo'llari» mavzusi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1993 yildan 2010 yilgacha oldingi Ikkinchi Toshkent Davlat tibbiyot instituti hozirgi Toshkent tibbiyot akademiyasining epidemiologiya kafedrasida mudiri, 2011 yildan shu kafedra professori, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Bosh epidemiologi (1995-2002), Sog'liqni saqlash instituti direktori (2001-2005), TTA tibbiy-profilaktika fakulteti dekani (2005-2010) lavozimlarida ishlagan.

O'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustoz 1993 yili tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga, 1998 yili professor

ilmiy unvoniga, 2008 yili Rossiya Federatsiyasi tibbiy-texnika fanlari akademigi ilmiy unvoniga ega bo'lgan. 2018 yili esa "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.



Sanitariya-epidemiologiya sohasining rivojlanishiga hissa qo'shgan olim turli yillarda profilaktik tibbiyot sohasida faoliyat yuritib, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. O'zbekistonning yetuk epidemiolog olimlaridan hisoblangan Omonturdi Mirtazayev rahbarligi ostida 6 ta darslik, 4 ta monografiya, 600 dan ortiq ilmiy ishlar, 18 ta o'quv qo'llanmalar chop etilgan.

O'zbekistonda birinchi marotaba o'zbek tilida "Epidemiologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma" (2003), "Harbiy epidemiologiya" (2013), "Harbiy epidemiologiya" (2013), "Epidemiologiya" (2016), "Epidemiologiya" (2017 y. tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun), "Epidemiologiya" (2020 y. tibbiy profilaktika fakulteti talabalari uchun), "Epidemiologiya" (2022 y. davolash va tibbiy pedagogika fakulteti talabalari uchun) darsliklar chop etildi.

Omonturdi Mirtazayev ilmiy va malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berardi. Ustozning rahbarligida Epidemiologiya-14.00.30. mutaxassisligi bo'yicha 2 ta doktorlik, 6 ta nomzodlik va 20 ta magistrlik dissertatsiyalari himoya qilingan, Respublikada birinchi marta Sog'liqni saqlash salomatlik institutini va ushbu institutning 14 ta filialini tashkil etgan.

Ishonchimiz komilki, o'zining ilmi, salohiyati va bor iqtidorini profilaktik tibbiyot sohasiga baxshida etgan fidoyi inson, olim, ustozning hayot faoliyati yosh avlodga doim o'rnak bo'la oladi va xotiramizda abadiy yashaydi. O'tganlarning oxirati obod bo'lsin.

Omonturdi Mirtazayevning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari, kafedra xodimlari, shogirdlari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etamiz.

TTA rektorati va Epidemiologiya kafedrasida jamoasi





MEHRGA TASHNA QALBLAR

Inson siyratining shakllanishi, sayqallanishi, kamol topishi va rivojida avvalo oila, ota-ona tarbiyasi, jamiyatning bu boradagi o'rni, ta'lim muassasalarining ahamiyati beqiyosdir.

Azal-azaldan xalqimiz matonat, shijoat borasida sobitqadamlik bilan olg'a borgan. Millat va elatlarga namuna, o'rnak bo'lgan. Keksalar duosini olish, bemorlar holidan xabar olish, mahalla qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari orqali chinakam o'zbek xalqining millatga xos tantiligi gavalangan. Oilada farzand tug'ilar ekan, unga tetapoya davridayoq ezgulik urug'lari kamarbasta qilinadi. Ota-onaning mehri, muhabbati, jamoatchilik e'tibori bu borada asosiy tayanch hisoblanadi. O'tmishga nazar solsak, buyuk xalqimiz tarixida Zardushtiylik ta'limotida ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi orqali insoniylik sifatleri tarannum etilgan. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham farzand tarbiyasida mehr-muhabbat tuyg'ularining kamol topishi borasida qator o'gitlar joy olgan.

Alisher Navoiy asarlarining mazmunida ham barkamol shaxs kamoloti haqida to'liq tushunchalar mavjud. O'gitlar pand-nasihatlar zahirida xalqimizning mehrga to'la yuragi, issiq tafti, qaynoq qo'llarining harorati sezilib turadi.

Insoniylik fazilatlarini bugungi kun yoshlariga targ'ib qilish, ular ongiga singdirish, ma'naviyatini

shakllantirish borasida qator tarbiyaviy targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi jamoasi va ko'p sonli o'quvchi yoshlari va ularning ota-onalari ishtirokida yetti yildan buyon an'anaga aylangan "Mehrga tashna qalblar" loyihasi asosida "Keling, mehr ulashaylik!" shiori ostida xayriya aksiyasi o'tkazildi. Aksiyada ko'ngli yarim, mehrga zor jajji yuraklarga oz bo'lsa-da quvonch ulashish asosiy maqsad qilib olindi. Targ'ibot jarayonida to'plangan xayriya mablag'lariga kerakli ashyolar xarid qilinib, jajji qalblarga quvonch ulashish maqsadida Yashnobod tumanidagi 30-son Mehribonlik uyiga tashrif amalga oshirildi. Akademik litsey o'quvchilari tomonidan tayyorlangan "Quyoshli kun" nomli musiqali chiqish namoyishi jajji qalblarga quvonch bag'ishlay oldi.

Insoniy fazilatlarining eng oliy cho'qqisi bu albatta dunyoga keltirgan, voyaga yetkazgan ota-otaga hurmat va ehtirom tuyg'ularining ifodasidir. Keksalar holidan xabar olish, muruvvat ko'rsatish har bir farzandning burchi.

Bu borada xayriya aksiyasi a'zolari Olmazor tumanida joylashgan qariyalar "Muruvvat" uyiga tashrifni amalga oshirdilar. Bu orqali ota-ona oldidagi burchlarini yana bir yodga olishdi. Kexsa yoshdagi qariyalar holidan xabar olinib, ularga issiq kiyim-bosh, meva va shirinliklar tortiq qildilar. Akademik litseyning drama to'garagi qatnashchilari ijrosida kuy va qo'shiqlar keksalar ko'nglini ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Qariyalar duosini olib qaytgan har bir o'gil-qiz kelajakda porloq istiqbolida insoniy fazilatlarini ustun qo'ya olishiga shubha yo'q.

O'quvchilar "Muruvvat", "Mehribonlik uy"laridan chiqar ekanlar, bugungi kunga shukronalik, kelajakka umid va ishonch, ezgu fazilatlarining inson hayot yo'lidagi asosiy maslak ekanligiga ishonch bildirdilar. Mehr-muruvvat - oliy fazilat, bu fazilatni bugungi kun yoshlariga singdirish borasida akademik litsey jamoasi tashabbusni qo'ldan bermay olg'a qadam tashlashda davom etaveradi.

Nigora HAKIMOVA,
TTA akademik litseyi Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2022 yil dekabr)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Normal va patologik fiziologiya	assistent – 1,0;
2.	1-son travmatologiya, ortopediya, harbiy dala xirurgiyasi	assistent – 1,0;
2-son davolash fakulteti		
1.	2-son umumiy xirurgiya	assistent – 1,0;
2.	2-son travmatologiya, ortopediya, harbiy dala xirurgiyasi va neyroxirurgiya	assistent – 1,0;
Pediatrica, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	2-son fakultet va gospital xirurgiya, transplantologiya	assistent – 0,5;
2.	2-son fakultet va gospital xirurgiya, transplantologiya	assistent – 0,5;
3.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklar	assistent – 1,0;
4.	Ftiziatriya va pulmonologiya	assistent – 1,0;
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	katta o'qituvchi – 1,0; assistent – 1,0;
2.	Jamoat sog'liqni saqlash maktabi	assistent – 1,0;
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMX fakulteti		
1.	Ijtimoiy fanlar	dotsent – 1,0
2.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	assistent – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
1.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	dotsent – 1,0
Xalqaro fakultet		
1.	Tibbiy va biologik kimyo	Tibbiy kimyo: assistent – 1,0;

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi